



MOZIYLARDAN KUYLOVCHI ILOQ ETNOGRAFIYASI VA FOLKLORI

Munisa Xalilova Doniyor qizi

O'zbekiston Davlat Xoreografiya akademiyasining 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining folklor san'ati ,folklor etnografik jamoalar dan bo'lgan "Ilok" etnografik jamoasi haqida fikr yuritilgan .Musiqiy folklor- etnografiyasi tarixi hamda musiqiy folklorlarda ta'lim va tarbiya jarayoni keng yoritilgan .Milliy musiqa folklori ming yillar davomida xalqimizning kundalik hayoti va ertangi kuni ,orzu umidlari intilishlarini aks ettirib kelgan ,hamda umummilliy madaniyat rivojiga muhim o'rinn qo'shishgan.

Kalit so'zlar:Folklor,Ilok etnografiyasi ,mahalliy musiqa uslubi ,qo'shiq ,milliy,urf-odat,marosim,badiiy-estetik did.

Munisa Khalilova Daniyor`s daughter

4 th grade student of the State Academy of Choreography of Uzbekistan

Annotation: This article discusses the folk art of the Uzbek people ,folklore and ethnographic communities "Ilok" group and the history of their development .The history of musical folklore and the progress of education and upbringing in musical folklore are given information about the role of "Ilok" etnografik in musical folklore.

Key words: Folklore , "Ilok" etnografik , intangible cultural heritage ,songs ,national art,folk creativity.

O'zbek xalqining folklor san'ati -milliy musiqa merosining ajralmas qismi va bo'lagi hisoblanadi.O'zbek musiqa folklori mehnatkash xalqimizning orzu-umidlari ,turmush tarzi ,madaniy hayotini o'zida aks ettiradi .Ayniqsa unda yashab,sayqallanib kelayotgan umuminsoniy qadriyat va an'analar xalqimizning bebafo boyligi hisoblanadi .Bu boylikni asrab-avaylab kelayotgan bir qator folklor guruhlari va jamoalari yurtimizda ko'plab topiladi .Shunday mashhur folklor etnografik jamoalaridan biri Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida faoliyat olib borayotgan "Ilok" etnografik -folklor jamoasi hisoblanadi.

Ohangaron tumani Toshkent vohasining noyob tarixiy ekologik mintaqalaridan biridir .Ko'plab konlar ,qadimiy shaharlar ,ertakmonanad sardobalar ,tog'lar bag'riga singib boruvchi ,qorlari yil bo'yli erimaydigan yo'llari ,xilma-xil afsona va rivoyatlarga manba bo'lib kelgan va hamon shunday bo'lib kelmoqda .Qadimgi Shosh -Ilok viloyati sayyoqlaru olimlarni doimo o'ziga qiziqtirib ,rom etib kelgan

Ilok-hozirgi Toshkent viloyatining janubida, Ohangaron daryosi vohasida joylashgan qadimgi davlat XIII asr boshlarigacha Ilok deb atalgan. Poytaxti Tunkat shahri bo'lган. Ilk o'rta asrlarda mustaqil davlatga aylangan. Ilok hukmdorlari "Ilok dehqonlari" unvoni bilan yuritilgan va katta iqtisodiy hamda siyosiy kuchga ega



bo'lganlar. Poytaxt shaharda tanga pul chiqaradigan davlat zARBxonasi bo'lgan. X asr oxirlarida Iloq Qoraxoniylar davlat tarkibiga kirgan. Chingizzon istilosidan so'ng Iloq yerlari jaloyirlar qabilasi tasarrufiga o'tgan.¹⁵¹

Mamlakatimiz folklor san'atida Ohangaron tumani va unga tutash hududlarda yashovchi aholining o'ziga xos ijodiy o'rni bor. Tarixdan ma'lumki, Iloq — davlatchiligi asriy ildizlarining yaqqol ifodasi bo'lgan qadimiy madaniyat markazi bo'lgan. U o'zining boy konlari bilan butun Sharqda mashhur bo'lgan. Bu hududda milliy hunarmandchilik, bog'dorchilik keng rivojlanib, Buyuk ipak yo'li madaniyatida alohida o'rIN tutgan. Bu bebaHO tarixni xalqimizga, yoshlarga yetkazib berishda ,yoshlarimizni unutulmas an'ana va qadryatlarimiz bilan tanishtirishda "Iloq "etnofestevalining ahamiyati katta bo'lmoqda .By festival Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi O'rg'ozsoy kengliklarida an'anaviy tarzda o'tkaziladi.

Mazkur festival Toshkent viloyati hokimligi, viloyat turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, viloyat madaniyat boshqarmasi, Ohangaron tumani hokimligi, O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri, "ZOOM-Proyekt" jurnali hamkorligida, Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi g'oyasi bilan beshinchI marta o'tkaziladi. "Iloq" etnografik festivalida ishtirokchilar qadimgi Iloq davlatining tarixiy urf-odatlari, odamlarning yashash tarzi, madaniyatidan zavq olib, folklor ansamblar, dorbozlarning chiqishlari, teatr ustalarining badiiy mahoratlariga guvoh bo'ladi. Konsert dasturlari, maydon tomoshalari, qolaversa, gastro ,etno, sport turizm imkoniyatlaridan bahra oladi.Bu yerda ajoyib maydon tomoshalari, xalq o'yinlari, folklor san'atimizning noyob namunalari, shuningdek, mintaqaning boy va betakror urf-odat va an'analarini ifoda etuvchi asori-atiqalariga, hunarmandchilik ko'rgazmalariga bevosita guvoh bo'lib, bir olam taassurotlar olishadi. Ayniqsa, bu yosh qiziquvchan bugungi kun yoshlariga ,chet ellardan tashrif buyuruvchi sayyoohlarga juda manzur bo'lib kelmoqda .

Iloq — davlatchiligimiz asriy ildizlarining yaqqol ifodasi bo'lgan qadimiy madaniyat oshiyonidir. U o'zining boy konlari (oltin, kumush, mis, feruza va h.k.) bilan butun Sharqda mashhur bo'lgan. Bu hududda milliy hunarmandchilik, bog 'dorchilik keng rivojlanib, Buyuk Ipak Yo'li madaniyatida alohida o'rIN tutgan.Bu bebaHO tarixni xalqimizga, bugunning yoshlariga etkazish maqsadida an'anaviy "Iloq" etnografik festivalining o'rni va ahamiyati beqiyos.

Shuningdek, bir necha yillardan beri tashkil etib kelinayotgan "Iloq" etnografik festivali ham har yili ko'plab mahalliy va xorijlik sayyoohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Aprel-may oylarida, ayni tabiat uyg'ongan va go'zallikka burkangan damda o'tkazib kelinayotgan ushbu an'anaviy festival faqatgina etnografik jamoalarning chiqishlari bilangina emas, balki Ohangaron tumanining tarixini, uning jozibadorligini keng targ'ib qilishda xizmat qilib kelayotganligi bilan ham ahamiyatlidir. Festival doirasida har yili 4 mingdan ziyod mahalliy va yuzlab xorijlik mehmonlarning kelishi unga bo'lgan qiziqishni yanada oshirmoqda.

¹⁵¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 127-sahifa



O'sib kelayotgan yosh avlod ongu shuuriga ezgulik va nafosat, estetik-ma 'naviy kamolotga muhabbat tuyg 'ularini singdirishda o'zbek milliy "Iloq" etnofestevalining o'rni hamda ahamiyati beqiyos. Bunday festevallarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlari, insoniy fazilatlari, milliy an'analari ifodalanadi. Inson ongingin musaffoligi ,jamiyatning yetukligi ,shaxs ma'naviyat dunyosining boyligini ta'minlashda folklor musiqasining ahamiyati juda katta . Shuning uchun ham folklore musiqa san'atini o'rganish o'quvchilarda ming yillik tarixga ega bo'lgan urf-odatlar ,udumlar ,marosimlarimizga nisbatan mehr-muhabbat va hurmat ruhiniuyg'otadi.

Bugungi kunda prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yoshlarimizda kitobxinlik madaniyatini, umuman ma'naviy merosimizni yoshlar ongiga singdirishga alohida e'tibor qaratmoqdalar . Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekxalq ijodi yodgorliklari"ning 100 jildini nashr etish yo'lga qo'yilgan . Bu loyidan "Iloq" etnofestevalining joy olishi ham ulkan voqeа bo'ldi

Asrlar davomida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni ,folklor an'analarimizni yoshlar ongiga singdirish va asrab qolishda "Iloq" etnografik folklor jamoasining o'rni beqiyosdir. Kelajakda ushbu jamoa jahon madaniyatida o'zbek milliy qadriyat va an'analarini keng yoritib ,o'z o'rnini topishiga ishonamiz. Zero , "Moziylardan kuylovchi Iloq etnografiyasi va folklori" kelajakka qarab parvoz qilishiga omad tilab qolamiz .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston "-2017 y.
- 2.O'zbek folklorshunosligi antologiyasi "O'zbekiston Milliy Enseklopideyasi "Davlat ilmiy nashriyoti." Toshkent 2017.
- 3.F.M.Karamatov ,O'zbek xalq musiqa merosi ",Toshkent G'.G'ulom nomidagi nashriyoti"-1987 y.
4. M.Jo'rayev ,J.Eshonqulov Folklorshunoslikka kirish .Toshkent "Barkamol fayz media nashriyoti "-2017 .
- 5.O'zbekiston Milliy Enseklopideyasi ."Davlat ilmiy nashriyoti." Toshkent 2006.
6. www.ziyouz.com/kutubxonasi.